XALQ DEPUTATLARI DAVLATOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-mart VII-5-14-6-219-K/25 Davlatobod tumani

Mahalliy budjeti 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli qaroriga asosan,

Q A R O R Q I L A D I

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, “Namangan shahar budjeti 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish haqida”gi tuman hokimligi takliflarini inobatga olib, shahar mahalliy budjeti 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq hisobidan **528 744,0 (besh yuz yigirma sakkiz million yetti yuz qirq to‘rt) ming so‘m** ilovaga muvofiq ajratilsin.

2. Davlatobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Mamatqulov), xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman bo‘yicha G‘aznachilik xizmatiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni shahar mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Q.Qo‘chqorov) budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman bo‘yicha G‘aznachilik xizmati (I.Ataxanov) to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman mahalliy budjet jarayonini ochiqligini ta’minlash maqsadida Namangan shahar mahalliy budjeti 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yhati, shuningdek qurilish ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keyingi chorakning ikkinchi oyi 10 sanasiga qadar tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Mamatqulov, xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmalariga yuklansin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

TADJIMIRZAYEV
ANVAR
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Davlatobod tumani
Kengashining
2025-yil 5-martdagi
VII-5-14-6-219-K/25 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Mahalliy budjeti 2025-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirilishi

ming so‘mda

T/r	Tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Ajratilgan mablag‘
1	Davlatobod tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi PQ-5089-son qaroriga muvofiq, Davlatobod tuman hokimligi binosini xavfsizligini ta’minlashda qo‘riqlash bo‘limi xodimlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar uchun	93 000
2	Davlatobod tuman hokimligiga	Davlatobod tuman hokimligining 2024-yil yakuni bilan foydalanilgan elektr energiyasidan bo‘lgan qarzdorligi uchun	40 000
3	Davlatobod tuman hokimligiga	Davlatobod tuman hokimligining 2024-yil yakuni bilan foydalanilgan ichimlik suvidan bo‘lgan qarzdorligi uchun	20 000
4	Davlatobod tuman hokimligiga	Davlatobod tuman hokimligining 2024-yil yakuni bilan foydalanilgan tabiiy gazdan bo‘lgan qarzdorligi uchun	6 000
5	Davlatobod tuman hokimligiga	Ichki ishlar bayrami kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbir xarajatlari uchun	116 000
6	Davlatobod tuman hokimligiga	Quvvati 6 KVt bo‘lgan energiya tejovchi quyosh panellarini xarid qilish xarajatlari uchun	30 000
7	Davlatobod tuman hokimligiga	Davlatobod tuman Yuksalish MFY hududini kameralashtirish xarajatlari uchun	40 000
8	Davlatobod tuman hokimligiga	Tuman hokimligining xizmat mashinalarini benzin yoqilg‘isidan bo‘lgan qarzdorligi uchun	30 000
9	Davlatobod tuman hokimligiga	Tuman hokimligi binosiga kir yuvish moshinasi, changyutgich, mikroto‘lqinli pech hamda majlislar zali uchun televizor xarid qilish	63 000
10	Davlatobod tuman hokimligiga	Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6-dekabrdagi 737-sonli qarorining “Noturar joylarda istiqomat qilayotgan, shuningdek, ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg‘iz onasi, yolg‘iz otasi yoki boshqa shaxslar qaramog‘ida bo‘lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan sotib olingan xonadonlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish va tuman hokimligi balansiga olish xarajatlari uchun	13 125

T/r	Tashkilot nomi	Xarajatlar mazmuni	Ajratilgan mablag‘
	Jami		**451 125**